© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

TALABA SHAXSI SHAKLLANISHIDA MIKROMUHITNING TARBIYAVIY O‘RNI

Baliyev Uchqun Ismatovich
Samarqand davlat pedagogika instituti “Musiqa ta’limi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada pedagogik oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarni shaxs sifatida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda mikromuhitning o‘rni nazariy jihatdan asoslangan. Talaba shaxsining mohiyati, uning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar (irsiyat, muhit, tarbiya va shaxs faolligi) tahlil qilingan. Akademik guruh va talabalar turar joyi mikromuhitning asosiy shakllari sifatida ko‘rib chiqilgan hamda ularda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga qo‘yiladigan talablar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: talaba shaxsi, mikromuhit, akademik guruh, talabalar turar joyi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, shaxs shakllanishi omillari, tyutor.

ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ РОЛЬ МИКРОСРЕДЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ СТУДЕНТА

Аннотация. В статье теоретически обоснована роль микросреды в духовно-нравственном воспитании студентов как личностей в педагогических высших образовательных организациях. Проанализированы сущность личности студента и факторы, влияющие на её формирование (наследственность, среда, воспитание и активность личности). Академическая группа и студенческое общежитие рассмотрены как основные формы микросреды, определены требования к организации воспитательной работы в них.

Ключевые слова: личность студента, микросреда, академическая группа, студенческое общежитие, духовно-нравственное воспитание, факторы формирования личности, тьютор.

THE EDUCATIONAL ROLE OF THE MICROENVIRONMENT IN THE FORMATION OF A STUDENT'S PERSONALITY

Abstract. The article theoretically substantiates the role of the microenvironment in the spiritual and moral education of students as individuals in pedagogical higher education institutions. It analyzes the essence of the student's personality and the factors influencing its formation (heredity, environment, upbringing, and the individual's own activity). The academic group and the student residence are examined as the main forms of the microenvironment, and the requirements for organizing educational work within them are identified.

Keywords: student's personality, microenvironment, academic group, student residence, spiritual and moral education, factors of personality formation, tutor.

Asosiy qism. Tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun avvalo tarbiya obyekti, ya’ni shaxsning mohiyatini aniqlash zarur. Pedagogik adabiyotlarda shaxs muayyan ijtimoiy guruh vakili bo‘lgan, biror faoliyat bilan shug‘ullanadigan, atrof-muhitga ongli munosabat bildira oladigan va o‘ziga xos individual-psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan aniq inson sifatida ta’riflanadi [1, 39-b.]. Talaba shaxsi deganda esa oliy ta’limda tahsil olayotgan, tanlagan kasbini egallash jarayonida intellektual, ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllanayotgan inson tushuniladi.

Bunday shaxs bilim oluvchi bo‘lish bilan cheklanmaydi: u o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi sifatida nazariy bilimni amalda qo‘llaydi, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Uning tavsifida besh jihatni ajratish mumkin: intellektual rivojlanish, kasbiy shakllanish, ma’naviy-axloqiy yetuklik, ijtimoiy faollik va o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyoji. Ma’naviy-axloqiy yetuklik bu tizimda qadriyatlar, mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasini o‘z ichiga oladi.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Shaxs shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar. Inson dunyoga biologik zot sifatida keladi, biroq uning haqiqiy mohiyatini ijtimoiy jihat belgilaydi. Shaxs uzoq davom etgan rivojlanish jarayonida odamlar orasida yashab, insoniy xislatlarni egallash orqali shakllanadi. Shu bois shaxs shakllanishida to‘rt omil: irsiyat, muhit, tarbiya va shaxsning o‘z faolligi o‘zaro bog‘liq holda ta’sir ko‘rsatadi.

Irsiyat organizmning ichki rivojlanish qonuniyatlarini, nasliy belgilarni belgilaydi [2, 22-b.]. Ayrim mutafakkirlar uni hal qiluvchi omil deb hisoblagan, natijada pedagogikada biologizatorlik yo‘nalishi paydo bo‘lgan. Ammo talabaning axloqiy fazilatlari tug‘ma emas, ijtimoiy tajriba, ta’lim-tarbiya va shaxsiy faoliyat jarayonida shakllanadi. Muhit esa tabiiy-geografik sharoitdan ijtimoiy munosabatlar tizimigacha bo‘lgan keng qatlamlarni qamrab oladi; uning muhim bo‘g‘ini oila bo‘lib, undagi dastlabki munosabatlar, hurmat va mas’uliyat tuyg‘usi shaxsning keyingi hayotiga poydevor bo‘ladi [2, 23-b.]. Faqat muhitga tayanadigan, insonni tashqi sharoitlarga passiv moslashuvchi deb biladigan qarash esa sotsiologizatorlik deb ataladi va u ham biryoqlama hisoblanadi, chunki shaxsning ichki faolligini hamda tarbiyaning maqsadli ta’sirini yetarli hisobga olmaydi.

Ilmiy talqin barcha to‘rt omilning birligini tan oladi. Ular ichida tarbiya va shaxsning ongli faolligi ma’naviy-axloqiy kamolotda hal qiluvchi rol o‘ynaydi: talaba o‘z ustida ishlaydi, axloqiy tanlovni ongli amalga oshiradi, ijtimoiy tajribani tahlil qiladi. Talaba faolligi o‘qish, ijtimoiy ishlarda qatnashish va tengqurlari hamda o‘qituvchilar bilan munosabatlarida namoyon bo‘ladi va kasbiy sifatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2, 25-b.]. Muhim jihat shundaki, talaba muhit ta’sirining passiv iste’molchisi emas, balki uning ishtirokchisi va yaratuvchisidir.

Makromuhit va mikromuhit. Ijtimoiy muhit keng ma’noda xalq va millat darajasidagi umumiy makon bo‘lib, u torayib, mamlakat, viloyat, tashkilot, jamoa, oila va guruh darajasiga tushgan sari shaxsga ta’siri kuchayadi. Bundan makromuhit va mikromuhit tushunchalari kelib chiqadi. Makromuhitda ijtimoiy munosabatlar yaxlit ko‘rinishda ifodalansa, mikromuhitda ular talaba bevosita ishtirok etadigan faoliyat sohasida aniq shaklda namoyon bo‘ladi. Makromuhit talaba shakllanishi uchun obyektiv shart-sharoitlarni yaratadi, biroq bu imkoniyatlar mikromuhitda har doim ham to‘liq ro‘yobga chiqmaydi. Sabab ko‘pincha tarbiyaviy ishlar mazmunining talaba ehtiyojiga mos kelmasligidadir.

Tajriba ko‘rsatadiki, mehr-shafqat, o‘zaro g‘amxo‘rlik, vatanparvarlik kabi sifatlar asosan jamiyatning turmush tarzi ta’sirida, takrorlanmas individual xususiyatlar esa oila va mikromuhit ta’sirida shakllanadi. Shu bilan birga talaba mikromuhitga nisbatan nisbiy mustaqillikka ega: bu mustaqillik uning hayotiy tajribasi, o‘zini anglashi va faol hayotiy pozitsiyasi natijasidir.

Pedagogik oliy ta’lim tashkilotida mikromuhitning asosiy shakli akademik guruhdir. Bu yerda talabalar bir-birlari va guruh tyutori bilan muayyan munosabatlar tizimida bo‘ladi. Har bir talaba bilim saviyasi, ijtimoiy ishlardagi ishtiroki va bajaradigan roli bilan ma’lum mavqega ega. Shaxslararo munosabatlar guruh a’zolarining individual-psixologik xususiyatlari hamda umumiy madaniy darajasi asosida shakllanadi. Bu munosabatlar guruh uchun obyektiv xarakterga ega, biroq har bir a’zo tomonidan subyektiv idrok qilinadi [3].

Bundan muhim pedagogik xulosa chiqadi: guruhda tarbiyaviy ish tashkil etayotgan tarbiyachi guruhning obyektiv holatini ham, uni talabalar qanday qabul qilayotganini ham bilishi kerak. Uning vazifalaridan biri obyektiv holat bilan tadbirga berilayotgan subyektiv baho o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishdir. Bu guruhda sog‘lom psixologik muhit yaratish, talabaning guruhdagi o‘z o‘rnini anglashi va qiziqishlarining shakllanishi uchun zamin bo‘ladi [3].

Guruhdan keyin talaba shaxsiga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan mikromuhit talabalar turar joyidir. Bu davrda talabaning hayotiy tajribasi hali yetarli emas, qarashlari va xulq-atvori mustahkam shakllanmagan bo‘ladi, shuning uchun turar joydagi axloqiy-psixologik muhit belgilovchi ahamiyatga ega [3]. Uni yaratishda turar joy ma’muriyati, guruh tyutorlari va talabalarning o‘zlari birgalikda ishtirok etishi kerak. Faqat xonalarni toza tutish va rasmiy tartibga amal qilish yetarli emas.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Ahil jamoa tashkil etish, o‘zaro hurmat asosida yashashga o‘rgatish, turar joyning o‘ziga xos urf-odat va an’analarini yaratish, ijobiy tartib-intizomga intilishni uyg‘otish muhimroq. Tarbiyaviy tadbirlar talabalarning mutaxassisligi, qiziqishi va ma’naviy ehtiyojlariga mos bo‘lganda ta’sirchan bo‘ladi va ularni o‘z-o‘zini boshqarishga tayyorlaydi.

Mikromuhitda tarbiya olib borishning asosiy talablari. Talaba va mikromuhit o‘zaro munosabatidan kelib chiqib, tarbiyaviy ish mazmunini belgilashda quyidagilarga tayanish lozim:

– talaba va mikromuhit xususiyatlarini birgalikda inobatga olish;

– o‘zaro ta’sirni shunday yo‘naltirish kerakki, ijobiy omillar kuchaysin, salbiylari zararsizlantirilsin yoki kuchsizlantirilsin;

– talabaning mikromuhitdagi ijtimoiy tajribasi va faolligini muntazam oshirib, uning ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishiga sharoit yaratish.

Bu talablar ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyati bilan bog‘liq. Ayrim yondashuvlarda tarbiya talabaga mafkuraviy va psixologik ta’sir ko‘rsatib, guruh uchun zarur xulq va axloq me’yorlarini singdirish vositasi sifatida qaraladi [4]. Ammo bunday yondashuv faqat ijtimoiy moslashuvga urg‘u beradi. Ma’naviy-axloqiy negizlar esa umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqning ma’naviy merosini mustahkamlash, insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etishi va vatanparvarlikni o‘z ichiga oladi [5, 96–97-b.]. Demak, guruh me’yorlarini o‘zlashtirish ichki e’tiqod bilan uyg‘unlashgandagina tarbiya barqaror natija beradi. Shu boisdan mikromuhitdagi tarbiyaviy ishning yakuniy maqsadi talabada qadriyatlarni ichki e’tiqodga aylantirish va uni kundalik xulq-atvorda hamda bo‘lajak kasbiy faoliyatda namoyon eta olish qobiliyatini shakllantirishdir.

Xulosa. Talaba shaxsi biologik, ijtimoiy, tarbiyaviy omillar va shaxsning o‘z faolligi o‘zaro ta’sirida shakllanadi; ular orasida tarbiya va ongli faollik ma’naviy-axloqiy kamolotning hal qiluvchi omilidir. Ijtimoiy muhit torayib, mikromuhitga yaqinlashgan sari uning talabaga ta’siri kuchayadi, shuning uchun pedagogik oliy ta’limda tarbiyaviy ishning asosiy maydoni akademik guruh va talabalar turar joyidir. Bu muhitlarda tarbiya guruhning obyektiv holatini va uning subyektiv idrok qilinishini, talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ijobiy omillarni kuchaytirib, salbiylarini kamaytirish orqali tashkil etilishi kerak. Guruh me’yorlarini o‘zlashtirish bilan cheklanmasdan, qadriyatlarni ichki e’tiqodga aylantirishga yo‘naltirilgan tarbiya talabani ma’naviy barkamol, ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: o‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
2. Asqarova O‘.M., Xayitboyev M., Nishonov M.S. Pedagogika: darslik. – T.: Talqin, 2008. – 288 b.
3. Baliyev U. Talabalarning shaxsiy rivojlanishida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati // O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti xabarlari. – 2025. – № 4 (35). – 115-b.
4. Umarov B. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarda guruh rahbarlari faoliyati // Xalq ta’limi. – 2003. – № 6. – B. 59–63.
5. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi: darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2008. – 288 b.